

SHAHAR SHAROITIDA YO‘LLAR VA TRANSPORT TIZIMLARINING TABIATGA TA’SIRI

Luqmonjonov Asadbek Bahodirjon o‘g‘li

Farg‘ona politexnika instituti

Mexanika mashinasozlik fakulteti

E 24-21 TVM guruh talabasi

E-mail: asadbekluqmonjonov@gmail.com

Olimjonov Asrorbek Oybek o‘g‘li

E 18-21 TMJ guruh talabasi

E-mail: alimjanovasror1@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunga kelib shahar muhitida yo‘llar va transport tizimlarining o‘rni juda kattadir. Ya’ni harakatni tashkil qilishda piyodalar va transport oqimlarini birinchi o‘rniga chiqadi.

Kalit so‘zlar: Yo‘llar, avtomobil, piyodalar, transport oqimi, shaharlar.

Hozirgi kunga kelib dunyo bo‘yicha shaharlar soni jadallik bilan ko‘payib bormoqda. Shu bilan birga shaharlarda avtomobil harakati ham keskin ko‘tarilmoqda. Jamoat markazlari eng ko‘p tashrif buyuradigan shaharlardir. Bu nafaqat xizmat ko‘rsatish joylari balki shahar aholisining katta qismi uchun ham ish joylari hisoblanadi. Shu sababli, shahar markazida piyodalar tashkiloti zarurdir. Chunki uning asosiy vasifasi piyodaning xavfsizligini va atrof-muhitning to‘g‘ri gigienik holatini ta’minlash uchun piyodani transport vositalaridan jismoniy, psixologik va vizual ajratishdir. Bu esa transport tizimlari va avtomobillar shuningdek piyodalarning haddan tashqari konsentratsiyasi bilan tavsiflangan shaharlarning markaziy qismlari uchun juda muhimdir. Shuningdek piyodalar harakatini vaqt va

makon bo'yicha boshqa harakat turlaridan to'liq ajratishda ikkiga bo'lish mumkin. Bular, vertikal va gorizantal. Birinchisi samaraliroq hisoblanadi. Chunki u yer sathida va piyodalar joylarida hududlarni ochiq obodonlashtirish maydonini ko'paytirishga imkon beradi, shuningdek, mavjud notekis relfni yengishga yordam beradi.

Yo'lovchi va yuk tashish oqimlarini fazoviy ajratishda, tranzit transportini jamoat markazlaridan tashqariga olib chiqish muhim ahamiyatga ega, chunki bu shahar atrof-muhitning kimyoviy va shovqin bilan ifloslanishining asosiy manbayi bo'lgan transportning to'yinganligini kamaytirishga yordam beradi. Shuni ham hisobga olish kerakki, piyodalar va transport vositalari oqimlarining fazoviy tashkil etilishi bilan ularning kesishishi minimallashtiriladi. Bu esa piyodalar va transport vositalari uchun joy sonlarini ko'paytirishga, shuningdek, yo'lni qulayroq, xavfsizroq qilishga va ko'chalarning ko'rinishini yaxshilashga imkon beradi.

High Line Park, AQSh.

High Line Park 10 metr balandlikda va 2,33km uzunlikda 1980 yilda tashlab ketilgan temir yo'llar ustida joylashgan. Bu deyarli o'n yil davomida relslar ishlatilmadi va asta-sekin vayron bo'ladi va 1990-yillarda but emir yo'lni buzish loyihalari tuziayotgan edi, lekin ularning barchasi juda qimmatga tushdi va amalga oshirilmay qoldi. So'ngra piyodalar uchun to'siqsiz va qulay yo'nalish yaratish maqsadida avtomagistral ustidagi ushbu joyda piyodalar zonasini tashkil etish taklifi ilgari surildi. High Line bu shisha osmono'par binolar orasidagi "yovvoyi" tabiatning bir qismidir. Asosiy tamoyil bu elektrotizim va puxta o'ylangan loyihalar, bir zona boshqasiga o'tadi shuningdek sa'nat obyektlari, panoramalar, oziq-ovqat korti va tekis yugurish yo'li ya'ni dam olishni istaganlar uchun yog'och amfiteatr kabi. Ushbu parkni qurishda turli xil materiallar ishlatilgan. Masalan: yog'och, tosh, metall va shunga o'xshash materiallar. Bu parkning xususiyatlaridan biri bu mavjud o'simliklarni saqlab qolish edi. Masul shaxslar bu soha bo'yicha izlanishlar olib bordilar va ko'chatlarning xilma-xilligi mohirlik bilan joylashtirdilar va ularni o'simlik kompozitsiyalaridan "O'sadigan" asl qoplamanini ishlab chiqdilar.

XULOSA

O‘rganishlarning asosiy maqsadi shaharlardan foydalangan holda zamonaviy qulay va bexatar shahar muhitini yaratishga qaratilgan texnikani tadbiq qilishdir. Maqolada asosiy vazifa sifatida tabiat muhiti va insonlar (piyodalar) va binolar shuningdek avtomobillar o‘zaro chambarchas ekanligi bo‘ldi. Shuningdek maqola xavfsizlik va piyodalar uchun qulaylikni ta‘minlash uchun fazoviy tashkilotni optimallashtirish olg‘a surilgan. Ushbu moslashtirish texnikasi shaharning piyodalar tuzilishining yaxlitligini buzish, transportning yuqori darajadagi xavfliligi va transport zonalaridan etarli darajada samarali foydalanmaslik bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni yechishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Ergashov, M, I. ANALYSIS OF METHODOLOGICAL APPROACHES FOR TECHNICAL EVALUATION OF THE LEVEL AND QUALITY OF GARAGE EQUIPMENT. Innovatsive technologica: Methodical Research Journal, 3(10), 120-126
2. Shoxrux G‘ayratjon o‘g‘li .R. Features of Machining Machine Parts On Cnc Machines Productivity And Accuracy. Eurasion Scientific Herald, 12, 70-76.
3. Mirzaboevich, M. E. Using Maple Programs in Higher Mathematics. Triangle Problem Construct on Vectors in Space. Central Asian journal of mathematical theory and computer sciences, 2(11), 44-55.
4. Ergashev, M. I., & Uraimjanov, S. Z. MANAGEMENT OF THE TIRE WEAR PROCESS OF THE “ BLACK BOX ” TYOE AT ROAD TRANSPORT ENTERPRISES. Acafemic research in educational sciences, 3(5), 285-289.